

OILAVIY MUAMMOLARNING BOLALAR RUHIYATIGA SALBIY TA'SIRI

Xudoyberdiyeva Gulnoz G'ayratovna

Buxoro viloyati Vobkent tumani 2-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oilaviy muammolarning bolalar ruhiyati va shaxs sifatida shakllanishiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri yoritilgan. Oiladagi nizolar, mehr yetishmasligi, noto'g'ri tarbiya va nosog'lom psixologik muhitning bola emotsional holatiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, bolalarda uchraydigan qo'rquv, xavotir, agressivlik va o'ziga ishonchsizlik kabi holatlarning oldini olishda ota-onalar va pedagoglarning o'rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Oilaviy muammo, bola ruhiyati, psixologik muhit, tarbiya, stress, emotsional holat, agressivlik, xavotir, ota-ona munosabati, psixologik yordam.

KIRISH

Oila inson kamolotida muhim o'rin tutuvchi ijtimoiy muhit hisoblanadi. Bola ilk tarbiyani oilada oladi, uning xarakteri, dunyoqarashi va ruhiyati aynan oilaviy muhit ta'sirida shakllanadi. Shu sababli oiladagi sog'lom psixologik muhit bolaning ruhiy rivojlanishi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Aksincha, oiladagi nizolar, tushunmovchiliklar va doimiy kelishmovchiliklar bolaning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda ayrim oilalarda uchrayotgan ajrimlar, ota-onalar o'rtasidagi nizolar, farzandga yetarli e'tibor bermaslik kabi holatlar bolalarda turli psixologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bola doimiy janjal va qo'pollikni kuzatib ulg'aysa, uning ruhiy barqarorligi buziladi. Natijada qo'rquv, ichki xavotir, tushkunlik va o'ziga nisbatan ishonchsizlik shakllanishi mumkin.

Oiladagi mehr va e'tibor yetishmasligi ham bola ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Bola ota-onaning mehriga ehtiyoj sezadi. Agar bu ehtiyoj qondirilmasa, u o'zini yolg'iz va keraksiz his qila boshlaydi. Bunday bolalarda jahldorlik, agressivlik yoki aksincha, tortinchoqlik va ijtimoiy muhitdan chekinish holatlari kuzatiladi. Ayrim hollarda esa bola e'tibor qozonish maqsadida salbiy xatti-harakatlarga moyillik bildiradi.

Noto'g'ri tarbiya usullari ham bolaning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Haddan tashqari qattiqqo'llik, doimiy tanbeh berish, bolani boshqalar bilan taqqoslash yoki uning fikrini inobatga olmaslik bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Natijada bola mustaqil qaror qabul qilishda qiynaladi va ichki ruhiy bosim ostida yashaydi.

Oilaviy muammolar bolaning ta'lim jarayoniga ham ta'sir qiladi. Ruhiy zo'riqish holatidagi bola darslarga diqqatini jamlay olmaydi, o'qishga qiziqishi pasayadi va tengdoshlari bilan munosabatda qiyinchiliklarga duch keladi. Ayrim hollarda esa bunday bolalarda deviant xulq-atvor shakllanishi mumkin.

Bolalar ruhiyatiga salbiy ta'sirlarning oldini olishda avvalo oilada sog'lom psixologik muhit yaratish muhimdir. Ota-onalar farzand bilan samimiy muloqot qilishi, uning fikr va his-tuyg'ulariga befarq bo'lmasligi kerak. Bola o'zini oilada himoyalangan va qadrlangan his qilishi zarur. Mehr, e'tibor va qo'llab-quvvatlash bolaning ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Shuningdek, pedagog va psixologlarning hamkorligi ham muhim ahamiyatga ega. Maktab psixologi bolalardagi ruhiy o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlab, ularga psixologik yordam ko'rsatishi lozim. Turli psixologik treninglar, suhbatlar va tarbiyaviy tadbirlar orqali bolalarda ijobiy fazilatlarni shakllantirish mumkin. Oila muammosi azaldan insoniyatning diqqat markazida bo'lib kelgan. Chunki oila mustahkamligi jamiyat faravonligining asosiy negizidir. Shu sababli Respublikamiz rahbariyati har bir xonadonning tinchligini, oilalarda farzandlarning baxtli, barkamol o'sishini ta'minlashga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Oilaviy muammolar yechimini o'rganish borasida respublikamiz psixolog olimlari tomonidan bir qator diqqatga sazovor ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Jumladan, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, N.A.Sog'inov, X.K.Karimov, Sh.Sh.Jo'rayeva, F.A.Akromova, R.M.Abdullayeva, Yo.No'monova, M.O.Utepbergenov, R.A.Samarov, T.Norimbetov kabi olimlarimiz va ularning izdoshlari tomonidan so'nggi yillar davomida o'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari, er-xotin nizolari, oilaviy rollar taqsimoti, oilalardagi shaxslararo munosabatlar hamda oilaviy muammolar kabi masalalar o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar respublikamizda oilani ijtimoiy-psixologik nuqtai-nazardan tadqiq etish bo'yicha ma'lum bir o'ziga xos an'analarning yuzaga kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Oilaviy muhit bola rivojlanishining asosiy omili bo'lib, u bolalarning psixologik holatiga va ijtimoiy ko'nikmalariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bola hayotidagi birinchi tarbiyaviy jarayon oilada boshlanadi. Ota-onalar, ularning o'rtasidagi munosabatlar, bolaga bo'lgan hurmat va qo'llab-quvvatlash bola psixologiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy muhitda mavjud bo'lgan hissiy va ijtimoiy aloqalar bola o'zini qanchalik xavfsiz va baxtli his qilishiga ta'sir qiladi. Ushbu maqolada oilaviy muhitning bola psixologiyasiga qanday ta'sir qilishi, oilaviy munosabatlar va tarbiyaviy uslublar o'rtasidagi bog'liqliklar tahlil qilinadi. Shuningdek, oilaviy muhitda yuzaga keladigan salbiy holatlar, masalan, ota-onalar o'rtasidagi janjallar yoki bolaga qarshi agressiv muomala, bolalar psixologiyasini qanday o'zgartirishi mumkinligi ham o'rganiladi.

Maqolada oilaviy muhitning bola psixologiyasiga ta'sirini o'rganish uchun ilmiy tadqiqotlar, so'rovnomalar, intervyular va psixologik tahlil metodlari qo'llanildi. Tadqiqotda oilaviy muhitning bolalar rivojlanishiga ta'siri haqidagi mavjud adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, so'rovnomalar va intervyular orqali ota-onalar, pedagoglar va psixologlar bilan suhbatlar o'tkazilib, oilaviy munosabatlar va tarbiyaviy uslublarning bolalar psixologiyasiga qanday ta'sir qilishi haqidagi fikrlar yig'ildi. Tadqiqotda ijobiy va salbiy oilaviy muhitning bolalar psixologiyasiga ta'sirini solishtirishga harakat qilindi. Metodologiya doirasida, shuningdek, bolalar o'rtasida o'tkazilgan psixologik testlar va ular orqali olingan ma'lumotlar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari, oilaviy muhitning bolalar psixologiyasiga ta'sirida ijobiy va salbiy jihatlarning mavjudligini ko'rsatdi. Ijobiy oilaviy muhitda bolalar o'zlarini xavfsiz va baxtli his qilishadi, bu esa ularning psixologik holatiga, o'ziga bo'lgan ishonchiga va ijtimoiy ko'nikmalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada sevgi, qo'llabquvvatlash, o'zaro hurmat va ishonch bolalarga o'zlarini erkin ifodalash, muammolarni hal qilish va boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo'lish imkonini beradi.

Biroq, salbiy oilaviy muhitda bolalar ko'proq stress, xavotir, depressiya va boshqa psixologik muammolarni boshdan kechiradi. Ota-onalar o'rtasidagi janjallar, oilaviy zo'ravonlik yoki bolaga qarshi yomon muomala, bola psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Salbiy muhitda bolalar o'zini past baholashlari, xavotirli va g'amgin bo'lishlari, boshqa bolalar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oilaviy muhit bolaning o'ziga bo'lgan ishonchiga, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Oilaviy muhitning bola psixologiyasiga ta'siri, avvalo, oiladagi munosabatlarga bog'liq.

Ota-onalar o'rtasidagi sevgi, qo'llab-quvvatlash va hamjihatlik bola psixologiyasini mustahkamlaydi. Ijobiy oilaviy muhit bolalarga muammolarni hal qilishni, boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo'lishni va o'z his-tuyg'ularini ifodalashni o'rgatadi. Ijobiy oilaviy muhitda bola ko'proq mustaqil bo'ladi, o'zini hurmat qiladi va ijtimoiy muhitda o'zini erkin ifodalaydi.

Boshqa tomondan, salbiy oilaviy muhit bola psixologiyasini buzishi mumkin. Ota-onalar o'rtasidagi janjallar yoki bolaga qarshi yomon muomala, bolaning ruhiy holatiga salbiy ta'sir qiladi. Salbiy muhitda bolalar o'zlarini xavfsiz his qilmaydi, o'zlariga past baho berishadi va boshqalar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu, o'z navbatida, bolalar o'rtasida agressiv xulqatvor, ijtimoiy izolyatsiya va ruhiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Tadqiqotda olingan natijalar, ota-onalarning bolaga nisbatan tarbiyaviy uslublari va oiladagi munosabatlarning bolalar psixologiyasiga ta'sirini o'rganishda muhim omil bo'lishini ko'rsatdi. Ota-onalar o'z bolalariga qanday munosabatda bo'lishlari, ular

bilan qanday aloqada bo'lishlari bola psixologiyasida uzoq muddatli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oilaviy muammolar bolalar ruhiyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi nosog'lom muhit bolaning emotsional holati, xulq-atvori va shaxs sifatida rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli oilada mehr-oqibat, o'zaro hurmat va sog'lom munosabatlarni shakllantirish muhimdir. Ota-ona, pedagog va psixologlarning hamkorlikdagi sa'y-harakatlari orqali bolalarning ruhiy salomatligini asrash va ularni barkamol shaxs qilib tarbiyalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziev E. G. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O'qituvchi, 2017.
2. Davletshin M. G. Yosh davrlari psixologiyasi. — Toshkent, 2018.
3. Karimova V. M. Oila psixologiyasi. — Toshkent: Sharq, 2020.
4. Vygotskiy L. S. Pedagogik psixologiya asoslari. — Moskva, 2016.
5. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika. — Toshkent, 2019.
6. Shoumarov G'.B. tahriri ostida. «Oila psixologiyasi», T.: «Sharq, 2000.
7. Davurova, G. (2020). Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish. Архив Научных Публикаций JSPI.
8. Davurova, G. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ. Архив Научных Публикаций JSPI.